

AYOLLARGA BAG'ISHLANGAN NASHRLARNING ADABIY FAOLIYATI ("YORQIN TURMUSH" VA "YORQIN HAYOT" JURNALLARI 1936-1941-YILLAR MISOLIDA)

Doniyorova Gulrux Baxtiyorovna

Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti o'qituvchisi

Filologiya fanlari doktori, professor O.Fayzullayeva taqrizi asosida

Annotatsiya: "Yorqin turmush" va "Yorqin hayot" jurnallarining davr ijtimoiy-adabiy hayotida tutgan o'rni va 1936-41-yillarda chop etilgan sonlaridagi adabiy materiallarning ilmiy qimmati, tasnifi, mavzusi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: She'riyat, she'rlar tasnifi, adabiy muhit.

"Yorqin turmush" va "Yorqin hayot" jurnallarida chop etilgan adabiy asarlarni ham badiiy saviyasiga ko'ra ikki guruhga bo'lib tahlil qilamiz.

1. Badiiy jihatdan mukammal bo'lgan asarlar.
2. Badiiy jihatdan nomukammal bo'lgan asarlar.

Badiiy va g'oyaviy jihatdan mukammal bo'lgan asarlarga "Yorqin turmush" jurnalining 1936-yil 1-sonida Usmon Nosirning "Hayot", 3-sonida Zulfiyaning "Ikkinchi toj", 1937-yil 2-sonida Zulfiyaning "Ahd" she'rlari, 1936-yil 1-sonida Cho'lponning "O'gaylar" hikoyasini kiritishimiz mumkin.

"Yorqin hayot" jurnalida esa 1938-yil 2-sonida "Qizlar kuylaydi" ruknida Zulfiya she'rlari, 1938-yil 3-sonida Asqad Muxtorning "Baxtiyor qiz", 1938-yil 4-sonida Turob To'laning "Lobar" 1938-yil 7-8-sonlarida Asqad Muxtorning "Farzand", 1938-yil 9-sonida Turob To'laning "Bizning sevgi", 1940-yil 3-sonida "Qizlar kuylaydi" ruknida Saida Zunnunovaning "Kitobim" she'rlarini misol qila olamiz.

Jurnallarda badiiy va g'oyaviy jihatdan mukammal bo'lmagan asarlar k'op uchrashiga sabab avvalo o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy tuzum ta'siri bo'lsa, yana bir sababi tahririyat havaskor ijodkorlarni ham qo'llab-quvvatlagan. Bunga "Yorqin turmush" jurnalining 1936-yil 1-sonida G'.Majidiyning "Gilam", "Kolxozchi qiz qo'shig'i" 1936-yil 3-sonida Oydinning "Adolatxonning brigadasi", 1937-yil 1-sonida Umida Muhammadjonovaning "Men davr qizi", 1937-yil 9-sonida Amin Umariyning "Ulug' oftob", M. Abdullayevning "Gulsanam" she'rlarini misol qilishimiz mumkin. "Yorqin hayot" jurnalida esa 1938-yil 1-sonida Amin Umariyning "Leninga", Qosimjon Hoshimning "Dilbarga" she'rlarini misol qilishimiz mumkin.

1936-1941-yillarda chop etilgan she'rlarning tuzilishi biroz tartibsiz, barmoq vaznidagi she'rlarning qofiya, turoq, vaznlarida kamchiliklar seziladi. Bitta she'rning har bir bandi har xil misralardan tashkil topgan. Masalan, 1937-yil 3-sonidagi Munavvara Yusufxon qizining "Ona so'zi" she'ri to'rtlik, sakkizlik, sakkizlik, to'rtlik

va sakkizlik tarzida yozilgan. 1938-yil 6-sonida Yoqub G'afurning "Ona" she'ri o'nlik, yigirmalik, yigirma birlik va sakkizlikdan tashkil topgan. 1939-yil 6-sonida chop etilgan Orif Yunusning 121 misralik "Ona va qiz" she'ri o'n uchlik, to'qson oltilik va o'n ikkilikdan tarkib topgan. Jurnalda uchraydigan she'rlarning hammasida ham bandlar tartibsizlik bilan tuzilmagan. Barmoq vaznining talablariga to'la javob bera oladigan she'rlar nisbatan oz bo'lsa-da bor. 1940-1941-yildan she'rlarning bandlari tartibga solib borilgan, ikkilik, to'rtlik, oltilik shaklida. Shuningdek, jurnal sahifalarida o'ta katta hajmli she'rlarni ko'p uchratamiz. Hattoki, bir, ikki va uch sahifalik she'rlar ham bor. 1939-yil 2-3-sonlaridagi 725 misralik "Stalinga shoirlar nomidan xat", 1939-yil 7-8-sonlaridagi G'.G'.ulom, H.Olimjon va Uyg'un hammualliflikda yozgan 326 misra ya'ni 3 betdan iborat "Katta Farg'ona kanali quruvchilaridan Stalinga tabrik", 1939-yil 10-sonidagi G'.G'.ulom va H.Olimjon hammualliflikda yozgan 532 misradan iborat "Katta Farg'ona kanali quruvchilaridan Stalinga xat" kabi nihoyatda hajmi katta she'rlar mavjud. O'sha davrning ijtimoiy-siyosiy ruhida yozilgan, katta hajmli she'rlar o'quvchi uchun ham biroz zerikarli.

Qolaversa, havaskor shoirlarga tegishli bo'lgan 1936-yil 3-sonida Oydingning 104 misralik "Adolatxonning brigadasi", 1937-yil 9-sonidagi M. Abdullayevning 100 misralik "Gulsanam", 1939-yil 11-sonidagi O'tkir Rashidiyning 168 misra ya'ni 1,5 sahifadan iborat "Ko'rub qoldim olma tagida" she'rlarining hajmi ham juda katta. Aslida she'rning g'oya va mazmun-mohiyati jihatidan kuchli biroq, hajm jihatidan kichikroq bo'lishi ham shoirning mahoratidan darak beradi.

"Yorqin turmush" va "Yorqin hayot" jurnallaridagi she'rlarni mavzusiga ko'ra quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Ijtimoiy-siyosiy mavzudagi she'rlar: 1937-yil 9-sonida Vosit Sa'dullaning "Ochil oppog'im", Amin Umariyning "Ulug' oftob", 14-betida M. Abdullayevning "Gulsanam";
2. Ma'naviy-ma'rifiy mavzudagi she'rlar: 1937-yil 7-8-sonlarida Rahmat Fayziy "Baxtiyor", Rahmat Fayziy "Zebi xola o'qushda", 1937-yil 9-sonida Toji Rahmoniy "Rohat bergan senga ming rahmat";
3. Maishiy mavzudagi she'rlar: 1937-yil 12-sonida Orif Yunus "Nar", Sulton Akbaralining "Ishchi qizga", 1938-yil 1-sonida Qosimjon Hoshimning "Dilbarga";
4. Vatan, mehnat va muhabbat mavzudagi she'rlar: 1938-yil 2-sonida Akram Ahrorning "Zafar qo'shug'i", Chig'oyning "Bluxerga", Toji Rahmoniyning "Do'stlik", "Qizlar kuylaydi" ruknida Zulfiya she'rlari, Tohir Otaxonning "Hur o'lkam" she'rlari chop etilgan.

Jurnalda havaskor shoirlar tomonidan yozilgan she'rlarni ko'p uchratamiz. "Qizlar kuylaydi" ruknida ham Oftob Xolbotirova, Oydin, Zulfiya, Saida Zunnunova kabi taniqli jurnalist va ijodkor ayollar bilan birga yurtimizning turli hududlarida

istiqlomat qilayotgan havaskor ayollarning she'rlari chop etilgan. She'rlar asosan yoshlik, vatan, muhabbat va mehnat mavzularida yozilgan.

XX asr adabiyoti o'zbek mumtoz va yangi o'zbek adabiyoti o'rtasida o'ziga xos ko'prik vazifasini o'tadi. Ijod yo'nalishi, janrlar tizimi, badiiy tasvir prinsiplari yangilandi, mavzular ko'lami kengaydi. Bu esa tabiiyki, ijodkorlarning asarlariga o'z ta'sirini o'tkazdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ergash Ochilov "Tarjimashunoslikning nazariy masalalri" T.: Innovasiya-Ziyo 2022-y
2. "Yorqin turmush" va "Yorqin hayot" jurnalarining 1936-1941 yillardagi sonlari
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Saodat>
4. <https://press.natlib.uz/ru/publications/saodat>